

MA'NAVIY-MA'RIFIY, TA'LIM-TARBIYA ISHLARI

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha 2024-2025 o'quv yili uchun tuzilgan ish rejasi ko'rib chiqildi va tasdiqlashga taqdim etildi. Kafedrada Ma'naviyat va ma'rifat burchagi tashkil etilgan. Kafedrada rejaga asosan, majlis o'tkazib borildi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning borishi tahlil qilib borildi.

4-sentyabr kuni kafedramizga 1-darajaga kelgan talabalarga "Ma'naviyat va ma'rifat" ishlari bo'yicha mas'ul Uteniyazova D.K. tashkilotchiligidagi "Mustaqillik darsliklari" seminar darsini o'tkazib, "Bir bo'lsak - bir xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!" mavzusida talabalarga tushuntirish berildi. Maqsadimiz talabalarning Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, bayroq, madhiya va gerblarning tutgan o'rmini tushuntirishdan iborat. muhokama qilinib borildi.



1 oktyabr Xalqaro o'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan kecha tashkil etildi. Kechani majlis raisi Bazarova S.K. kirish so'zi bilan ochib berdi. U o'z so'zida kecha ishtirokchilarini, kafedra o'qituvchilarini bugungi bayram munosabati bilan tabrikladi va bugungi sana haqida qisqacha tushuncha berib o'tdi.

So'ngra bayram munosabati bilan kafedrada QMI rektori O.A. Ataniyazova tomonidan ko'p yillar davomida qilgan samarali mehnatlarini hisobga olib kafedramiz boshlig'i Bazarova S.K. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Olqishnomasi bilan taqdirlandi, Bazarova S.K talabalarga ilm, bilim sirlarini o'rgatishda katta muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Shu bilan birga kafedra assistentlari ham ustozlar kuni bilan tabrikladi, har birining mehnatlarini, talabalar bilan hamkorlikda faolliklarini, bilim sirlarini o'rgatishda kuch-g'ayratlarini ayamasdan xizmat qilib kelayotganliklarini aytib o'tishmoqda.



21-oktyabr o'zbek tilining davlat maqomi olgan kunini nishonlab ass. Berdimuratova Z.T. ma'ruza qildi va yoshlarga o'z ona tiliga hurmat bilan qarashi kerakligini, ona tiliga hurmat o'z xalqiga hurmat ekanligini tushuntirib o'tdi.



13-noyabr kuni Tibbiyat xodimlari kunini nishonlash maqsadida kafedra a'zolari va talabalariga ass. Utениязова D. ma'ruza qildi.

17 noyabr - Millatlararo talabalar kunini belgilab, ustozlar guruh talabalariga bir-birlariga nisbatan do'stlik tuyg'ulari va hurmat-izzatni rivojlantirish bo'yicha tushuntirib o'tdi.

18-noyabr "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i qabul qilingan kun." Yig'ilishni kafedra mudiri Bazarova S.K. kirish so'zi bilan ochdi va olib bordi. U

o‘z so‘zida 18 noyabr "O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i qabul qilingan kun" bayrami bilan ya’ni bayrog‘imiz qabul qilinganining 33 yilligi munosabati bilan barchani tabrikladi va 1991 yilda o‘z mustaqilligimizni oqanimizdan so‘ng bayrog‘imizning qabul qilinganligi, ko‘plab yutuqlarimiz haqida so‘zlab berdi.

1-dekabr Qoraqalpoq tiliga til maqomi berilganiga 35 yil to‘lishi munosabati bilan "Mangu yasha Ona-tilim" nomli tadbir o‘tkazildi.

Yig‘ilishni kafedra mudiri Bazarova S. kirish so‘zi bilan ochdi. U o‘z so‘zida 1-dekabr Qoraqalpoq tiliga til biylici berilganiga 35 yil to‘lishi munosabati bilan barchani tabrikladi va 1989-yili o‘z biyligini oqanini, ko‘plab yutuqlarimiz haqida aytib o‘tdi.



1-dekabr Butunjahon OITSga qarshi kurash kuniga bag‘ishlab kafedrada majlis o‘tkazildi va kafedra assistenti Berdimuratova Z. ma’ruza qilib, talaba-yoshlar OITS kasalligining kelib chiqishi va uning oldini olish haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldi.

2-dekabr kuni kafedrada 3-dekabr "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan QMI ma’naviyat bo‘limi tomonidan berilgan topshiriq asosida aksiyaga "Akusherlik, ginekologiya va neonatologiya" kafedrasini madaniyat vazirligi huzuridagi ko‘zi ojizlar respublika kutubxonasiga borib, tarbiyalanuvchilarning holidan xabar olindi. Hamda sovg‘a salomlar topshirdi.

8-dekabr "O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligiga" bag‘ishlangan Majlisni "Akusherlik, ginekologiya va neonatologiya" kafedrasini mudiri S.Bazarova kirish so‘zi bilan ochib berdi. U o‘z so‘zida 8-dekabr "O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 32 yilligi" bilan bog‘liq bayram munosabati bilan barchani tabrikladi hamda konstitutsiyaning paydo bo‘lishi haqida hamda o‘zgarishlar haqida gapirib o‘tdi. Shuningdek, kafedra assistentlari Berdimuratova Z. va Koshanova A.M. so‘zga chiqdi. Konstitutsiyada belgilangan ta’lim va tibbiyot bo‘yicha tegishli bo‘limlarni aytib o‘tdi.

Shuningdek, universitetimizda bo‘lib o‘tgan 21-mart "Navro‘z bayrami"ga kafedra professor-o‘qituvchilari ordinatorlar bilan birgalikda asbob-uskuna va milliy

kiyim-kechaklar bilan faol qatnashdi. Institut miqyosidagi bo‘lib o‘tgan navro‘z bayramining yaxshi kayfiyatda o‘tishi uchun barcha kafedra assistentlari o‘zlarining fikrlari ziyrakligi bilan faol qatnashdi. Navro‘z bayramiga kafedraga biriktirilgan guruhlar o‘zlarining musiqiy chiqishlari, milliy liboslari, cholg‘u asboblari bilan faol qatnashdi.



9 aprel Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligiga bag‘ishlab assistent Uteniyazova D.K. ma’ruzasini o‘qib eshittirdi.

9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Motamsaro ona" yodgorligiga sayohatga o‘qituvchi va talabalar ishtirok etganligi tadbirlarini o‘tkazdi.

18-may-Millatlararo muzeylar kuniga asoslanib kafedra professor-o‘qituvchilar guruh talabalarini "Savitskiy" nomidagi muzeyiga, I.Yusupov nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyiga olib borib, tarixiy merosimiz bilan tanishtirdi.

31-may - Millatlararo chekishga qarshi kuniga bag‘ishlab talaba-yoshlar o‘rtasida hozirgi vaqtida mamlakatimizda ro‘y berayotgan giyohvandlikning og‘ir oqibatlari haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

1-iyun Butunjahon tabiatni muhofaza qilish kuniga bag‘ishlab kafedra a’zolari guruh talabalari bilan QMI klinikasida davolanayotgan bolalarning holidan xabar olinib, dori-darmonlar uchun moddiy yordam, o‘quv qurollari va oziq-ovqat mahsulotlari olib borildi.

6-7 iyun kunlari Qurbon Hayit bayrami munosabati bilan kafedra mudiri S.K.Bazarova kam ta’minlangan, yordamga muhtoj xo‘jaliklarga go‘sht, yog‘, oziq-ovqat mahsulotlari berildi.

26-iyun - Giyohvandlikka qarshi kurash kuniga asoslanib yoshlar o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurash usullari muloqot orqali joriy etildi.

Institutimiz tomonidan tashkil etilgan Respublikaning muhim sanalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan bayram tantanalarida guruh talabalari to‘liq ishtirok etdi. Kafedramizga tegishli guruqlar bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi I.V.Saviskiy nomidagi san’at muzeyiga sayohat tashkil etildi.

Shuningdek, talaba yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha har bir guruh institutimizda o‘tkazilgan Ichki ishlari xodimlari bilan birgalikda jinoyatchilik va uning oqibatlari haqida suhbatda to‘liq ravishda ishtirok etib bordi. Yong‘in xavfsizligi oyligi, yo‘l harakati xavfsizligi oyligida shu mavzularda suhbatlar o‘tkazildi.

Yangi yil bayramini o‘tkazishda kafedra o‘qituvchilari faol ishtirok etdi va kafedra yangi yil bezaklari bilan bezatildi.

Kafedrada muntazam ravishda yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, yuqumli kasalliklar, turli diniy oqimlarga qarshi profilaktik ishlari olib borildi.

Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha kafedramizga tegishli yer uchastkasi atrofini tozalash va ta’mirlash, yerkarni bo‘shatish ishlari olib borildi va tuyu, moshevelnik, qizil atirgul ko‘chatlari ekildi.

Ma’naviyat ishlari bo‘yicha mas’ul:

Berdimuratova Z.T.